



**TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHIYATINING
OSHIRISH MANBALARI**

Ergashova Nilufar Sobirovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika

universiteti, mustaqil izlanuvchisi

e-mail: nilufarergashova60@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyatini oshirish imkoniyatlari, mavjud manbalar va ularni kengaytirish yo'llari tahlil qilinadi. Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi, shu sababli uning moliyaviy salohiyati iqtisodiy barqarorlik va o'sishning asosiy omillaridan biridir. Maqolada resurs bazasini kengaytirish, zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish va investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, investitsiya salohiyati, kredit resurslari, moliyalashtirish manbalari, bank faoliyati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности увеличения инвестиционного и кредитного потенциала коммерческих банков, источники его формирования и пути расширения. Банковская система играет важную роль в экономике страны, а ее финансовый потенциал является одним из ключевых факторов экономической стабильности и роста. В статье предложены меры по расширению ресурсной базы и стимулированию инвестиционной активности банков.

Ключевые слова: Коммерческие банки, инвестиционный потенциал, кредитные ресурсы, источники финансирования, банковская деятельность.

Abstract: This article analyzes the opportunities for enhancing the investment and credit potential of commercial banks, as well as the sources and mechanisms for expanding their financial capacity. The banking system plays a vital role in a country's economy, and its financial strength is a key factor in ensuring economic stability and growth. The paper offers recommendations for expanding the resource base and encouraging investment activity through modern financial instruments.

Keywords: Commercial banks, investment potential, credit resources, sources of financing, banking activity.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va ularni iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirish davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyatini oshirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.





O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanib, xususan, tijorat banklarining resurs bazasi va xizmat ko'rsatish hajmi kengayib bormoqda. Biroq, mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish, resurslarni uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltirish va raqobatbardosh moliyaviy muhitni shakllantirish hali dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi ishtirokini kuchaytirish uchun ularning investitsiya va kredit imkoniyatlarini oshirish, bu yo'lda zamonaviy moliyaviy vositalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Mamlakatimizda olib borilayotgan moliyaviy islohotlar doirasida banklarning kapital yetarli darajada mustahkamlanmoqda, lekin bu yetarli emas. Zamonaviy yondashuvlar, xususan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, obligatsiyalar chiqarish, lizing va faktoring kabi moliyalashtirish usullaridan keng foydalanish orqali banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyatini oshirish manbalari, ularning tarkibi, muammolari va rivojlanish istiqbollari chuqur tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyati bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish bank faoliyatining eng muhim va dinamik segmentlaridan biri hisoblanadi. Investitsiya salohiyati — bankning real sektorni moliyalashtirish, investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotdagi faol ishtirokini ta'minlovchi resurs va vositalar majmui sifatida qaraladi. Kredit salohiyati esa bankning qarz berish imkoniyatini belgilovchi, ularning kapital bazasi, jalb etilgan resurslar va moliyaviy barqarorligiga tayanadi.

Mahmudov A. (2020)¹⁰² o'z tadqiqotida tijorat banklarining moliyaviy vositalardan foydalanish darajasi va ularning kredit portfelidagi diversifikatsiya muhimligini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, banklar kredit berishda ko'proq qisqa muddatli va kam riskli kreditlarga e'tibor qaratadi, bu esa real sektor uchun yetarli bo'lmaydi.

Karimova D. (2021)¹⁰³ esa o'z tadqiqotida banklar resurs bazasining asosiy qismini jismoniy shaxslar omonatlari tashkil etishini ta'kidlab, bu holat investitsion barqarorlik uchun yetarli emasligini bildiradi. U kredit salohiyatini mustahkamlash uchun banklar chet el investitsiyalarini jalb etishi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirishi lozimligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajribalar, xususan, IMF (2022) va World Bank (2021)¹⁰⁴ hisobotlarida aytilishicha, banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish salohiyatini oshirishda kapital

¹⁰² Mahmudov, A. (2020). *Tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash tamoyillari*. Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, 6(4), 26–32.

¹⁰³ Karimova, D. (2021). *Bank resurs bazasining shakllanishi va uni rivojlantirish yo'llari*. Moliyaviy Tadqiqotlar Jurnali, 1(3), 17–24.

¹⁰⁴ World Bank. (2021). *Global Financial Development Report 2021: Financial Intermediation in the Digital Age*. The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/gfdr>



bozorlar bilan integratsiya, korporativ obligatsiyalar chiqarish va suveren kafolatlar mexanizmlaridan keng foydalanish muhim hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda banklar real sektorni moliyalashtirishda maxsus investitsiya fondlari bilan yaqin aloqada bo'ladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda bu borada muayyan ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrda PF-6098-son¹⁰⁵ Farmoni asosida banklar kapitalini oshirish, davlat ishtirokini kamaytirish va kredit faoliyatini erkinlashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Davletov A. (2022)¹⁰⁶ tomonidan olib borilgan tadqiqotda banklar tomonidan korxonalarning investitsion loyihalarini moliyalashtirishda axborot asimmetriyasi va risklarni baholashdagi muammolar asosiy to'siqlardan biri sifatida qayd etilgan. Uning fikriga ko'ra, tijorat banklari investitsion salohiyatini oshirish uchun texnologik infratuzilma va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishi lozim.

Mavjud adabiyotlar banklarning investitsiya va kredit salohiyati turli omillar — resurslar tarkibi, moliyaviy vositalar, boshqaruv sifati, risklarni baholash mexanizmlari va davlat siyosatiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bois, ularni tizimli rivojlantirish strategik yo'nalish bo'lib, ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyatini baholash hamda uni oshirish manbalarini aniqlash uchun tizimli, solishtirma va tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlar birgalikda qo'llanib, bank faoliyati va moliyaviy ko'rsatkichlarga doir statistik ma'lumotlar asosida chuqur tahlil olib borildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan 10 ta yirik tijorat banklari tanlab olindi. Bu banklar moliyaviy salohiyati, kredit portfeli hajmi, investitsion faoliyati va resurs bazasi bo'yicha solishtirildi. Ma'lumotlar manbai sifatida Markaziy bank hisobotlari, banklarning yillik moliyaviy hisoboti, Davlat statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlar (IMF, World Bank) ma'lumotlaridan foydalanildi.

Baholashda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- Koeffitsientlar tahlili – banklarning kredit va investitsiya salohiyatini ko'rsatkichlar (kredit portfeli ulushi, kapital yetarliligi, aktivlar rentabelligi va boshqalar) orqali baholash;
- Solishtirma tahlil – O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining ayrim rivojlangan davlatlar bank tizimi bilan solishtirilishi;
- Ekspert so'rovi – bank sohasi mutaxassislari va moliyaviy tahlilchilar bilan intervyu orqali amaliy muammolar va takliflar aniqlanib, sifatli tahlilga asos bo'ldi.

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida* [PF-6098-sonli Farmon]. <https://lex.uz/docs/5086041>

¹⁰⁶ Davletov, A. (2022). *Tijorat banklarida investitsion loyihalarini moliyalashtirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari*. Bank va Bozor, 2(45), 34–39.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Tadqiqotda statistik tahlillar Excel va SPSS dasturlarida amalga oshirildi. Shuningdek, grafik va jadval usullaridan foydalanilib, asosiy ko'rsatkichlar vizual ifodalandi.

Mazkur metodologik yondashuv tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyatini har tomonlama tahlil qilishga imkon berdi hamda uni oshirish bo'yicha aniq strategik yo'nalishlarni belgilash uchun mustahkam asos yaratdi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyatini tahlil qilishda bir nechta muhim ko'rsatkichlar asos qilib olindi. Ular orasida banklarning umumiy aktivlari, kredit portfeli hajmi, depozitlar tarkibi, investitsiyaviy faoliyat hajmi va kapital yetarliligi asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. O'zbekiston bank tizimi bo'yicha 2019–2023 yillar davomidagi statistik ma'lumotlar asosida quyidagi asosiy holatlar aniqlandi:

1. Bank resurslarining o'sish sur'atlari barqaror, ammo investitsion yo'naltirish past

So'nggi besh yil davomida tijorat banklarining umumiy aktivlari 2,5 baravarga o'sdi. Biroq, bu o'sish asosan qisqa muddatli kreditlash va iste'mol kreditlari hisobiga yuz bergan. Real sektorni moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsion kreditlarning ulushi past (umumiy kredit portfelining 18–22 foizi atrofida).

2. Resurs bazasi asosan aholi omonatlariga tayangan

Tahlilga ko'ra, banklarning resurs bazasining 60 foizdan ortig'i jismoniy shaxslar omonatlaridan iborat bo'lib, bu barqaror investitsiyaviy faoliyat uchun yetarli emas. Tashqi investitsiyalar va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari cheklangan.

3. Kredit portfeli tarkibi diversifikatsiyalanmagan

Banklar asosan qurilish, xizmat ko'rsatish va iste'mol sektoriga kredit ajratmoqda. Innovation va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohalariga ajratilgan kreditlar ulushi past bo'lib qolmoqda. Bu esa banklarning investitsiyaviy rolini chegaralab qo'ymoqda.

4. Kreditlashdagi xavflar va risklarni boshqarish tizimi yetarli darajada emas

Ko'plab banklarda kredit baholash jarayoni asosan garov qiymatiga asoslangan, bu esa yangi va kichik biznes uchun investitsiya kreditlariga chiqishni cheklaydi. Risklarni baholashda texnologik asbob-uskunalaridan foydalanish darajasi past.

5. Moliyaviy ko'rsatkichlar va investitsion salohiyat o'rtasida tafovut mavjud

Quyidagi grafikda yirik tijorat banklarining aktivlari va investitsion kreditlar o'rtasidagi tafovut aks ettirilgan:

Jadval 1.

Tijorat banklarining kredit portfeli va investitsion kreditlar ulushi (2023)

Bank nomi	Umumiy kredit portfeli (mlrd so'm)	Investitsion kreditlar (mlrd so'm)	Ulushi (%)
O'zmilliybank	18,500	3,250	17.6%
Ipoteka-Bank	15,700	2,840	18.1%




Agrobank	12,600	1,950	15.5%
Asaka Bank	9,400	1,880	20.0%

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning yirik tijorat banklari umumiy kredit portfeliga ega bo‘lishiga qaramasdan, ularning investitsion kreditlarga ajratgan ulushi yetarlicha yuqori emas. Ayniqsa, O‘zmilliybank va Ipoteka-Bankning umumiy kredit portfeli katta bo‘lsa-da, investitsiyaviy kreditlash salohiyati 17–18% atrofida qolmoqda. Bu esa iqtisodiyotda ishlab chiqarish va innovatsion sektorlarni moliyalashtirish darajasi pastligidan dalolat beradi.

1-rasm.

2019–2023 yillardagi tijorat banklaridagi investitsion kreditlar dinamikasi



Ushbu diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2019-yildan 2023-yilgacha O‘zbekistondagi tijorat banklarining investitsion kreditlari hajmi yil sayin oshib borgan. 2019-yilda bu ko‘rsatkich 4 200 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda 7 100 mlrd so‘mga yetgan. Bu ijobiy tendensiya bo‘lsa-da, investitsion kreditlash hajmining o‘sishi banklarning umumiy aktivlariga nisbatan sust bormoqda. Ya’ni, banklar mavjud moliyaviy resurslarini asosan qisqa muddatli yoki iste’mol kreditlariga yo‘naltirishda davom etmoqda.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston tijorat banklari so‘nggi yillarda faol rivojlanib, ularning kreditlash va investitsiya imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Ammo tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, banklarning mavjud moliyaviy resurslari to‘liq darajada real sektorni moliyalashtirish, innovatsion ishlab chiqarish loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilmayapti. Kredit portfelining asosiy qismini iste’mol kreditlari tashkil etmoqda, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o‘rishni ta’minlashda yetarli emas.

Investitsion kreditlar hajmining o‘sishi kuzatilayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon banklar umumiy aktivlariga nisbatan sust bormoqda. Bundan tashqari, banklarning resurs bazasi asosan qisqa muddatli depozitlar va aholi omonatlariga tayanadi, bu esa ularni uzoq



muddatli investitsiyalar uchun zaif qiladi. Shuningdek, risklarni boshqarish tizimi va kredit baholash jarayonlarining an'anaviyligi yangi iqtisodiy subyektlarning moliyaviy resurslarga kirishini cheklamoqda.

Tijorat banklari kredit portfelining kamida 30 foizini uzoq muddatli, investitsiyaviy loyihalarga yo'naltirishi bo'yicha bosqichma-bosqich strategik rejalar ishlab chiqilishi lozim.

Ichki kapitalni ko'paytirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda uzoq muddatli moliyalashtirish liniyalarini jalb etish orqali banklarning barqaror investitsiyaviy salohiyati kuchaytirilishi kerak.

Banklarda kredit riskini baholashda sun'iy intellekt, Big Data va scoring tizimlaridan foydalanish orqali samaradorlik oshiriladi va yangi subyektlar uchun kredit oluvchanlik soddalashtiriladi.

Investitsion kreditlar aynan ishlab chiqarish va texnologik yangilanishlarni amalga oshirayotgan KOB subyektlariga yo'naltirilsa, bu iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylanadi.

Xavf darajasi yuqori bo'lgan, ammo iqtisodiy samaradorligi katta bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat kafolati ostida ishlaydigan maxsus investitsiya fondlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Karimov, M. M. (2021). *O'zbekiston tijorat banklarida kreditlash tizimining takomillashuvi*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
2. Rakhimov, A., & Abdullayev, S. (2022). Investment activity of commercial banks in Uzbekistan: Trends and challenges. *Journal of Central Asian Economic Studies*, 4(2), 45–58.
3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Annual report 2022*. Retrieved from <https://cbu.uz/en/reports/>
4. International Monetary Fund. (2023). *Uzbekistan: Financial Sector Assessment*. Washington, DC: IMF Publications. <https://www.imf.org/>
5. Akramova, M. K. (2020). The role of commercial banks in financing investment projects. *Scientific Bulletin of Finance and Banking*, 2(1), 61–66.
6. World Bank. (2023). *Enhancing access to long-term finance in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.worldbank.org/>
7. Tashkent Institute of Finance. (2022). *Bank ishi nazariyasi va amaliyoti* (3-nashr). Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti.
8. Abduraimova, D., & Tursunov, B. (2021). Analysis of investment crediting mechanisms in the banking system. *Finance and Accounting Review*, 6(3), 33–39.